

rag'batlantirib borish.

Izlanishlarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 7 yoshli o'quvchilar aksariyat hollarda qo'rquvni his etmaydilar. His-tuyg'ularni tushunish va idrok etishdagi nomukammallik tashqi tomondan kattalarning his-tuyg'ularni ifodalashlarini talab qiladi. Shu tariqa aksariyat hollarda muloqotdagi ijobiy hamda salbiy holatlar o'quvchilarga o'tadi [5]. Natijada kichik maktab yoshida ta'lim-tarbiya ta'sirida o'quvchilarning ruhiy rivojlanishlarida jiddiy siljishlar vujudga keladi. Mazkur rivojlanishning hissiy-affektiv jihatlarini o'z-o'zini boshqarish jarayonini muntazam, izchil tarzda rivojlantirishga intilishni ta'minlaydi. Shu asosda

o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvorlari va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarida barqarorlik tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional munosabatlar tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi natijasida o'zaro barqaror ko'nikmalar shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar shakllanishining pedagogik-psixologik omillari o'zida ong, ko'nikmalar va xulq-atvorni mujassamlashtiradi. O'quvchining shaxs va o'ziga xos sub'ekt sifatida shakllanish jarayoni qadriyatli-fikriy jihatning faollashuviga olib keladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi amaliy faoliyatining barcha jihatlarini, ijtimoiy ma'naviy hayotida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil, 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026-Yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2023 y., PF 27 -son.
3. Raximova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. –Namangan: 2022. 142-b.
4. Abduxolisovna R.M. Technologies for the development of social skills in primary school students.
5. Rahimova M. International evaluation standard of education quality and efficiency implementation of operation. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019, 1(7), 270-275.
6. Abduxolisovna R.M. Valuable attitude - respect to education Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 04, April 2022 SJIF 2022 = 8.625 A peer reviewed journal.

REZYUME. Ushbu maqolada amaldagi "Yangi avlod" darsliklari haqida fikr yuritilib, 1-sinf Tarbiya fanini o'qitishda tayanch ma'naviy kompetensiyalar vositasida o'quvchilarida ijtimoiy kreativlikni rivojlantirishning metodik usullari bayon etilgan. Shuningdek, muallif 1-sinf tarbiya fani o'qitish orqali o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni keltirib o'tgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются действующие учебники «Янги авлод» и описываются методические приемы развития социального творчества учащихся с помощью основных духовных компетенций в преподавании уроков Воспитания в 1-классе. Кроме того, автор упомянул о социально-эмоциональных навыках, которые необходимо формировать у учащихся посредством обучения предмета Воспитания в 1 классе.

SUMMARY. This article examines the current textbooks "Yangi avlod" and describes methodological techniques for developing students' social creativity with the help of basic spiritual competencies in teaching Education lessons in 1-grade. In addition, the author mentioned the social-emotional skills that need to be developed in students through teaching the subject of Parenting in 1-grade.

TARIX FANIDAN O'QUV TOPSHIRIQLARI TUZISHGA PRAGMATIK YONDASHISH

G.A.Rzambetova – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: pragmatik yondashuv, savol va topshiriqlar, tarix, o'qituvchi, o'quv topshiriqlari, mashg'ulot, o'quv jarayoni, mustaqil ishlash, ma'lumot qidirish, mantiqiy savollar bera olish, baholashga qulay topshiriqlar, mustaqil ta'lim.

Ключевые слова: прагматический подход, вопросы и задания, история, учитель, учебные задания, тренинг, образовательный процесс, самостоятельная работа, поиск информации, умение задавать логические вопросы, задания, удобные для оценки, самостоятельное обучение.

Key words: pragmatic approach, questions and tasks, history, teacher, educational tasks, training, educational process, independent work, information search, ability to ask logical questions, tasks convenient for evaluation, independent learning.

O'qitish metodikasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning asosiy vositachisi – bu o'quv topshiriqlaridir. Tarix fanini o'qitish oldiga ham bugungi globallashuv jarayoni bir qator vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, teran tafakkurga ega o'zligini, o'tmishini anglagan, ajdodlariga munosib bo'lish mas'uliyatini anglaydigan yoshlarni tarbiyalash asosiy vazifa bo'lib turgan paytda o'quvchilarga pragmatik o'quv topshiriqlar orqali zarur bilim va ko'nikmalarni berish zarur. Bunday sharoitda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi pragmatik o'quv topshiriqlari tuzish va samarali foydalana olishdir. O'qituvchi, avvalo, to'g'ri va mantiqli savol bera olishi, baholashga qulay o'quv topshiriqlar tuza olishi lozim.

Pedagogikaga doir tadqiqotlarda O.R.Rozikov, B.R.Adizov, I.E.Davronovlar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, bunda o'quv topshiriqlaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham o'rganilgan.

Shu jumladan, A.N.Leontev, J.A.Ponomarev, S.L.Rubenshteyn kabilar o'quv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, Leontev "topshiriq" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo'yilgan maqsaddir".

Xalqaro pedagogika, xususan, lingvodidaktika sohasida

o'quv topshiriqlarning metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan avstraliyalik olim Jak Richards maxsus shug'llangan. Shuni ta'kidlash joizki, o'z davrida g'arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e'tiborni qaratgan. Dastlabki pragmatik g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan.

Mashg'ulotlarda o'quv topshiriqlari o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilar ma'lumotlar bilan ishlay olishga topshiriqlar orqali to'g'ri yo'naltirilsa, axborot texnologiyalari asrida manba muammo bo'lmaydi. Endi bilimdon o'quvchilar tayyorlash vaqti o'tdi. Bugungi davrning talabi biluvchi, bilib oluvchi o'quvchilarni tarbiyalashdir.

H.Mustafoyeva B.A.Lapidusning quyidagi fikrini keltiradi: "Uning (B.A.Lapidusning) fikricha, o'quv topshiriqlar bevosita nutqiy faoliyat xususiyatlarini qamrab olganligi bilan xarakterlansa, til mashqlari nutqiy muloqot ko'nikmasi taraqqiyotini ta'minlash uchun xizmat qiladi".

Agar o'qituvchi o'quvchiga to'g'ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni bajarishga o'rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq orqali hosil qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari yetishib chiqishiga sharoit yaratilgan bo'ladi.

X.Muxitdinova o'quv topshiriqlari, jumladan, mashqlarning ahamiyati haqida shunday deydi: "Hozirgi kunda o'qitish tamoyillari, ularda beriladigan o'quv

materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o'rgatishga yo'naltirilgan topshiriqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta'lim mashg'ulotlariga moslashtirib qo'llash yo'llarini topish mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir".

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta'lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlar ta'lim mazmuniga o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlariga mo'ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar.

Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg'or namunalarini aks etishi kerak, degan ta'kid, fikrimizcha, tarix o'qitishga, darsliklarga ham tegishlidir.

Masalan, 11-sinf Tarix darsligida quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanib kelinadi:

Savol va topshiriqlar:

1. 1992–1997-yillardagi ta'lim tizimining keyingi yillardagisidan farqli jihatlarini sanab bering.

2. Uzlaksiz ta'limni rivojlantirish omillari nimalardan iborat?

3. O'zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlash masalalarining mohiyati nima?

4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat? [1:56–59].

Tarix darsliklarida savol va topshiriqlar tuzishda pragmatik imkoniyatlar ham hisobga olinishi kerak. Davlat ta'lim standartlari mazmunida ijodiy tafakkur sohiblarini tayyorlash, o'quvchini mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish vazifasi ham mavjud. Shu ma'noda zamonaviy dars qanday tashkil etilishi, o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan qanday muloqot qilishi, qanday topshiriq va savollar berish asosiy masala hisoblanadi.

Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat: eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta'lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish; darsni o'quv topshiriqlaridan o'rinli va maqsadli foydalangan holda tashkil qilish; o'quvchilarning bilish faoliyati uchun tegishli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o'quv topshiriqlari ishlab chiqish; savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog'lanishlarni e'tiborda tutish; ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog'lanish, o'quvchilarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish; shaxsning barcha muloqot uchun zarur bo'lgan barcha nutqiy malakalarini rivojlantirish, natijalariga ko'ra rag'batlantirish va faollashtirish; o'quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionalligi mezonlarini hisobga olish; o'quv topshiriqlari bilan ishlashda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish; o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog'lash; o'quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko'zda tutish; o'quv topshiriqlari o'quvchida bilim olish, fikrlash, nutqiy ko'nikmalarni egallashdan tashqari, o'zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Ma'lumki, har bir dars uch maqsadga erishishga qaratilgan: o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirish. E.Davronov maqolasida taniqli psixologlar va didaktika nuqtayi-nazaridan "topshiriq" tushunchasining mohiyati ochib berilgan. E.Davronov topshiriqlarga ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada "topshiriq", "tarbiyaviy topshiriq", "intelektual", "muammo" atamalarini bilan, "mashq" "mustaqil ish"

atamalarini bilan birga qo'llaniladi. Leontyev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: "Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo'yilgan maqsaddir". U topshiriqning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflash uchun "ehtiyoj", "motiv" va "faoliyat" atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomaryov topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o'quv vaziyatida subyekt va obyektning o'zaro ta'sirini, bilimlarni o'zlashtirish, ularni takomillashtirish bo'yicha subyektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o'quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o'quv materiali bilan bog'liqligi nuqtayi-nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, "o'quv topshiriq'i o'quv maqsadlariga bog'liq bo'lgan o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir". O'qitish ehtiyojlari asosida quyidagi xususiyatlar ta'kidlanadi: qurish (strukturalash) imkoniyati; strukturani qurish va qayta ko'rib chiqish; o'quv materiali shaklining mavjudligi; o'quv jarayoni bosqichlarining mutanosibli; bir vazifani boshqalarga almashtirish imkoniyati; ochiq tizim; bir-birini to'ldirish; bilimlarni o'rganish va takomillashtirish usullarining talablarga mosligi; o'qitish va o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish. "Topshiriqlar insoniyat tomonidan to'plangan tajribani aks ettiradi va shu bilan birga moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yangilash va ularni yanada boyitish vositasiga aylanadi.

Har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni yechish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida o'quv topshiriqlarning ishtiroki o'ziga xos bo'ladi:

– muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar orqali motivatsiyani ta'minlash;

– har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

– muammoni hal qilishda qo'yilgan topshiriq va savolning ahamiyati;

– o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi dialogik do'stona muloqotning o'rnatilishi.

Bularning barchasi o'quv topshiriqlar mazmuniga bog'liq, o'quv topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya.Lerner, N.M.Skatkinlarning yondashuvi hammaga ma'lum va mashhurdir. Bilish faoliyatining turi – o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv sxemasi bo'yicha ishlash orqali o'quvchilar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir. Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi: tushuntirish-illyustrativ (axborot-reseptiv); reproduktiv; muammoli taqdimot; qisman-qidiruv (xuaristik); tadqiqot. Axborot-reseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok etishni tashkil etadi; o'quvchilar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar. Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlash chiqish mumkin. O'qituvchining boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi.

O'quvchilar bilimini baholash masalasi ham ta'limning asosiy qismi hisoblanadi. Joriy baholashlar mashg'ulot so'ngida yoki uy vazifalari shaklida olib borilaveradi, ammo summativ baholash muayyan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Masalan, Respublika ta'lim markazi tomonidan yakuniy nazorat uchun tuzib berilgan savollar mazmuni quyidagicha:

Tarix fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o'rtta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan. Ushbu topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo'lib, har bir biletga uch yo'nalishdagi mavzu asosida uchtdan savol beriladi. Topshiriqlar quyidagi mazmunda tuziladi:

1. O'zbekiston yoki Jahon tarixida mavjud bo'lgan biror-bir joy nomi bilan bog'liq bo'ladi.

2. O'zbekiston yoki Jahon tarixi fanida davlat boshqaruvi faoliyati yoritilgan hukmdorlardan biri beriladi.

3. O'zbekiston va Jahon tarixi fanida o'rganiladigan mavzulardagi atamalariga izoh beriladi [2:8].

O'qituvchilarning o'z o'quvchilarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu – o'quv topshiriqlaridir. Har bir o'qituvchi puxta, foydali baholashga qulay savol va topshiriqlar tizimini yarata olishi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tarix fanini o'qitishda o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlari asosida mashg'ulot olib borishi lozim. Zero, bunday savol va topshiriqlar o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlaydi, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash malakasiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Jo'rayev N., Zamonov F., O'zbekiston tarixi (Mustaqillik davri) O'rtta ta'lim muassasalarining 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. –Toshkent: "G'afur G'ulom" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. 56-59-b.

2. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1994. –С.44. Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. –М.: «Учитель», 1981. –С.103.

3. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2004. 42-б.

4. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. –Москва: «Педагогика», 1976. –С.416.

5. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика. 1972. –С. 576.

6. Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. Общество и его проблемы. Перевод с английского: И.И.Мюрберг, А. Б.Толстов, Е.Н.Косилова. – М.: 2002.

7. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения. Текст. –М.: Педагогика, 1981.

8. Давронов И.Э. Некоторые аспекты интерпретации понятий «задание» и «упражнение». Текст : непосредственный. // Молодой ученый. – 2012. № 8 (43). – С. 323–326.

REZYUME. Maqolada tarix mashg'ulotlari uchun pragmatik o'quv topshiriqlari ishlab chiqish, bunda maqsadli savol va topshiriqlar tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan, ma'lumotlar bilan mustaqil ishlay oladigan, ma'lumotlarni solishtirib, ular orasidan kerakli fikrlarni ajratib oladigan talabalarni shakllantiruvchi o'quv topshiriqlar tuzish, tarix faniga doir eng muhim, talaba uchun zarur ma'lumotlar va mavzularni ajratib bera oladigan va pragmatik mazmundagi foydali ahamiyatli o'quv topshiriqlarni tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari, yondashuvlari haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье описывается разработка прагматических учебных заданий для уроков истории, развитие навыков составления целевых вопросов и заданий, формирование учебных заданий, формирующих у учащихся самостоятельное мышление, способных самостоятельно работать с данными, сравнивать данные и выделять из них необходимые моменты, наиболее важные в истории, может выделить необходимую информацию и темы для студента.

SUMMARY. The article describes the development of pragmatic learning tasks for history lessons, the development of skills for composing targeted questions and tasks, the formation of learning tasks that form students' independent thinking, able to work independently with data, compare data and highlight the necessary moments from them, the most important in history, can highlight the necessary information and topics for the student.

ЛОГИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ ИГРЫ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Г.Туребекова – старший преподаватель

Д.Жаксымуратова – магистрант

М.Ерниязова – магистрант

Нукуский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: мантикий ва математик қобилиятлар, математик тушунчалар, геометрик фигуралар, нарсаларнинг ўлчами, халқ математикаси.

Ключевые слова: логико-математические способности, математические представления, геометрические фигуры, величина предметов, народная математика.

Key words: logical and mathematical abilities, mathematical representations, geometric figures, size of objects, folk mathematics.

Развитие логико-математических способностей детей дошкольного возраста - это современная методическая проблема дошкольного образования. Логико-математическое развитие предполагает познавательную активность в собственном развитии дошкольника. Настоящее требует создать благоприятные условия для овладения ребенком начальными формами исследования, экспериментирования, изобретательства, чтобы развить умение формулировать вопросительные предложения, самостоятельно изучать окружающий мир, радоваться открытиям.

Анализ исследований ученых показал, что сегодня научный интерес вызывает новый аспект - введение дошкольников в мир логико-математических представлений.

В настоящее время реализуется идея простейшей логической подготовки дошкольников, разработана методика развития логических операций с помощью специальной серии логико-математических игр, развивающих игр. Обучающие игры моделируют важные понятия не только математики, но и информатики. В ходе игры решаются задачи развития и логических структур мышления, и математических представлений [1].

В исследованиях, посвященных проблеме математического развития дошкольников, внимание акцентируется на формировании у детей отдельных математических знаний о количественных отношениях, форме, величине предметов, ориентировании в пространстве и времени.

Обучение математике на занятиях и вне их способствует становлению ребенка как личности.

Воспитатель должен передавать средства познания мира, формировать у ребенка базу личной культуры, в том числе базы культуры познания.

Исследователи раскрыли суть понятий «логико-математическое развитие» - качественные изменения в познавательной деятельности ребенка, происходящие в результате развития математических умений и связанных с ними логических операций. Логико-математическая компетенция - умение ребенка самостоятельно осуществлять (в пределах возрастного периода):

- классификацию геометрических фигур, предметов, множеств;

- упорядочение по размеру, массе, объему, расположению в пространстве и времени;